

TALABALARDA MA'NAVIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AMALGA OSHIRILADIGA MA'NAVIY TADBIRLAR

Xakimova Marxabo O'raqovna

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası tadqiqotchisi

Rejabova Aziza Nizom qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 309-guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada talabalar oliy ta'lim bosqichiqa amalga oshiradigan ma'naviy tadbirlari va ularni talabalar hayotida tutgan o'rni haqida yoritilgan. Ma'naviy qadriyatlar singdirish usullari va ta'limdan tashqari ma'navit tadbirlarni milliy va zamonaviy turlarining ahamiyati beqiyosdir.

Kalit so'zlari: texnologiya, ma'naviyat, milliy qadriyat, internet, milliy dunyoqarash, fikrlash, ma'naviy tadbirlar,

Аннотация:

В данной статье рассматриваются духовные занятия, которым студенты подвергаются во время получения высшего образования, и их роль в жизни. Несравнимо значение методов воспитания духовных ценностей, национальных и современных видов внешкольной духовной деятельности.

Ключевые слова: роль технологии, духовность, национальная ценность, мышление, духовная ценность, национальное сознание.

Abstract:

This article discusses the spiritual activities that students carry out at the higher education level and their role in their lives. The importance of methods of instilling spiritual values and national and modern types of extracurricular spiritual activities is incomparable.

Keywords: the role of technology, spirituality, national value, thinking, spiritual value, national consciousness.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidama'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-sonli qarori mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish va uni aholi va yoshlar ongiga to'g'ri yetib borishi uchun ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki bugungi kunda butun jahonda uchrayotgan ma'naviy taxdidlar va diniy extremistik oqimlarga ko'-ko'rona qo'shilib qolayotgan insonlar orasida yoshlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Shuning uchun yoshlar ongida ularni ma'naviyatini buzolmaslik uchun yetarli darajada immunitet hosil qilishimiz zarur bo'lmoqda. Qachonki ma'naviyati kuchli insonni hechqanday buzg'unchi g'oyalar zaharlay olmaydi yoki fikrini o'zgartira olmaydi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyati beqiyosdir.

Bu borada ta'lim muassasalarining talabalar faoliyatini to'liq ta'minlash va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish zarurdir. Talabalar ma'naviy hayoti ta'lim sifatini oshishi uchun ham yordam beradi. Chunki talaba ta'li olishda do'st-o'rtoqchili munosabatlarini o'rnatadi, bir-biri bilan iliq munosabatda bo'ladi, o'zaro madaniyat shakllanadi, do'stlik rishtalari bog'lanadi va natijada ta'lim olishdagi qiyinchiliklarni birga yengishadi, topshiriqlarni birgalikda bajaradi, fikr almashdi, o'rgatadi, qo'llab-quvvatlashadi. Talabalar ma'naviy qadriyatlarimizdan muomala madaniyatini o'zgacha ko'rinishda shakllantiradi; ya'ni ustozlar bilan muomala qilish tengdoshlari bilan muomala qilishda nutq madaniyati normalariga rioya qilib badiiy tilde so'zlashadi va bilimlarini namoyon qiladi. Nutq odobi ham ma'naviy qadriyatlarimizdan eng go'zal milliyqadriyatdir, muloyimlik, chiroyli gapirish, pasht ovozda so'zlashish, chiroyli so'zlardan nutqda foydalanish va nutqni ma'noliso'zlar bilan ishlatish kabi tushunchalar oliy ta'limda talabalarga eng ko'p zarur bo'ladigan ma'naviy qadriyatlarimizdan.

Undan tashqari kiyinish odobi, munosabat bildirish, kattalar maslahatiga quloq solish, navbati bilan fikr bildirish, bir-birini tinglash, o'zgalar fikrini eshitish va har bir fikr va maslahatdan to'g'ri xulosalar chiqarish kabi odob-ahloqqa yo'g'rilgan ma'naviy qadriyatlarimiz ham singdiriladi. Bularni barchasini atrofdagi tengdoshlarni va ta'limdagi mutaxassislarni maslahatlari bilan yanada yoshlar talabalik davrida ham o'zlashtiradilar. Chunki ma'naviy qadriyatlarni bolada shakllanishi ta'lim bosqichlarida o'rganib boriladigan jarayon hisoblanadi.

Yoshlar ta'lim jarayonini mazmunli tashkil qilishda ta'limdan tashqari tarixiy joylarga, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, nuroniylar va yordamga muhtoj oilalar holidan xabar olish va mehribonlik uylariga tashrif buyurish ham ma'naviy qadriyatlarimiz hisoblanadi, bunda yoshlar ongida milliy qadriyat sifatida qarilar xolidan xabar olish, tarixni o'rganish va mehr ko'rsatish kabi tuyg'ularni o'stirishga xizmat qiladi. Bizning millatimizning milliy qadriyatlaridan eng ezgu qadriyat sifatida qaraladiganlari o'ta-onalarni hurmat qilish bob ova buvilarni ezozlash, yetimlar va faqirlarga yordam qilish, tarixni o'rganish va kelajak avlodga yetkazishdir.

Oliy ta'limda talabalarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish bir muncha boshqa yosh bosqichlariga nisbatan ancha samarali hisoblanadi, chunki bu yoshda yoshlar ancha ulg'aygan ko'rgan va eshitganlaridan to'g'ri xulosa chiqara oladigan, axborotlarni to'g'ri tushunib o'z fikrini bildirib olishi va o'z dunyoqarashiga ega shaxsga aylangan bo'ladi. Shuning uchun ma'naviy qadriyatlar nachagina ular hayotida o'z ornini topgan bo'ladi. Shuningden bugungi kun texnologiyalari hisoblangan internet va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish va uning ijobiy tomonlari va salbiy oqibatlarini ham to'g'ri anglay olishadi. Faqat ularda zamonaviy bo'lish va urfdagi tushunchalarni milliylik bilan uyg'ulashtirib kattalar ko'magida singdirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Undan tashqari sport o'yinlari musobaqalari, milliy bayramlar, marafonlar, konsert dasturlari, taniqli insonlar bilan uchrashuvlar kasbiy va milliy ko'rgazmalarda qatnashi va ishtiroketish ham talabalarda ma'naviy qadriyatlarga hurmat uyg'onadi hamda milliy g'urur shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbar Saitqosimov. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi. O'quv qo'llanma. "Fan va ta'lim" nashriyoti. Toshkent – 2022
2. Aliyev M. O'zbekiston yoshlari buzg'unchi g'oyalarga qarshi. Milliy-ma'naviy yuksalish va yoshlar tarbiyasining ayrim masalalari. Maqolalar to'plami. JDPI, 2021 y.
3. Daminov I. Ota-ona hikmat, farzand – chiroq. – Toshkent, Ma'naviyat, 2019.
4. Saitqosimov A. Milliy g'oya va ijtimoiy barqarorlik. – Toshkent, Tafakkur, 2014
5. Xakimov N., Jo'raqulov O.. Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash (I.A. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari asosida metodik qo'llanma). – T.: Fan, 1998.